

BOSHLANG'ICH MAKTAB MATEMATIKA DARSLARIDA  
MUAMMOLI VAZIYATLARNI YARATISH O'QUVCHILAR FAOLLIGINI  
OSHIRISH OMILI SIFATIDA.

Rahimova F.A.

*Urganch davlat universiteti, katta o'qituvchi*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lif matematika darslarida o'quvchilarning mustaqil faolligi oshirishda muammoli ta'lifning pedagogik asoslari va imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *reproduktiv, ijodiy faoliyat, intellektual, taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirish, tahlil qilish*

«Bola ba'zan tayyor bilimni olishni xoxlamaydi va ularni majburiy miyasiga quyadigan odamdan o'zini chetga tortadi. Lekin, shu bilimlarni mustaqil izlash va ularni egallash uchun bajonidil ustoziga ergashadi»

Shalva Amonashvili

Boshlang'ich ta'lifning yangi tizimga o'tishi hozirgi zamon o'qituvchisidan, o'quvchiga yangi ma'lumotni tayyor holatda bermay, balki o'quvchining o'zi yangi bilimlarni kashf qilishga yordam bera olish mahoratini talab qiladi. Shu sababli o'quv jarayonida yangi ta'lif texnologiyalaridan foydalanish zaruriyati paydo bo'ladi, bu esa o'quvchini dars jarayonida tadqiqiy faoliyatini ko'zlaydi. Shunday texnologiyalardan biri bu muammoli ta'lmdir. Ta'linda muammoli vaziyat bu – o'quvchilarda muhokama mavzuiga qiziqish uyg'otishga yo'naltirilgan, maxsus rejalashtirilgan jarayondir. Muammoli vaziyatlar ta`limiy faoliyatni faollashtirishga qaratilib, murakkab savollarga yechim izlash va topishdan iboratdir, bu esa tahlil qilishni, bilimlarni yangilashni, alohida faktlar ortidagi qonuniylarni ko'ra bilish qobiliyatini va boshqa bilish amallarini talab qiladi. Har bir yangi materialni o'rghanish darsida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida ilmiy ijodning barcha bosqichlaridan o'tishadi: muammoni qo'yish, muammo yechimini izlash, yechimni ifodalash va uni amalga oshirish.

An'anaviy darsdan farqli o'laroq muammoli dars jarayoni o'quvchining reproduktiv(esda qolgan narsani tiklash)faoliyati emas, balki ijodiyligi bilan xarakterlanadi, bu ortiqcha qiyinchiliklarsiz bilimni yanada chuqurroq egallash, zakovat va ijodkorlikni rivojlantirish, faollikni oshirishni ta'minlaydi. Bu chindan ham bolalar uchun zavq bilan qiziqarli tarzda bilim olishdir deya olamiz.

Dars jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratishning asosiy ahamiyatli tomoni shundaki, bolalar yana bir bora taqqoslash, kuzatish, xulosa qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi; ular har bir savolga tayyor javob bo'lmasligiga, ularning har bir o'z javoblarini bayon qilish huquqiga ega ekanliklariga amin bo'lishadi. Bunda o'qituvchining vazifasi turli javoblardan mos keladiganini tanlab olish emas, balki bolaning har bir fikridan jonli tafakkur mahsuli, ya'ni natijaviy goyan ko'ra bilishidir. Tadqiqiy o'rghanishlar shuni ko'rsatadiki, muammoli ta'lif har bir bolaning umumiyligi

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

rivojlanishiga ijobiy sharoit yaratadi. Bola oldiga muammoli vaziyatni qo'yish, uni muammolardan qo'rqmay ularni yechishga harakat qilib ko'rishga o'rgatadi. Bu esa bola katta xayotga qadam qo'yanida ruhiy zarbaldan oz bo'lsaham himoyalana olishiga omil bo'la oladi.

«Boshlangich ta'lim konsepsiya»sida bayon qilinishicha, zamonaviy ta'lim oldi tendensiyasi o'quvchilarni aniq bir bilimlar yig'indisini egallahsga yo'naltiribgina qolmay, balki shu bilan bir vaqtda bolani ruhiy, shaxsiy rivojlanishi, uning ijodkorlik, bunyodkorlik, bilim olish qobiliyatini rivojlantirishga ham yo'naltirilgandir. Shu sababli, boshlang'ich ta'lim amaliyotiga kichik yoshdagagi maktab o'quvchilarini ta'lim jarayonida rivojlantirish g'oyasini amalga oshiruvchi pedagogik texnologiyalar joriy qilinmoqda.

Rus pedagogi L.G Petersonning qayd qilishicha, ta'lim faoliyatlilik metodi orqali amalga oshirilsa, o'quvchilar bilimni mustaqil izlanish orqali olishadi. O'qituvchi bolalarni bu faoliyatga faqat yo'naltiradi va berilgan algoritmik xarakatlarga anqlik kiritish orqali natijalarni umumlashtiradi.

Ijodiy faoliyat – bu shunday faoliyatki, bunda produktivlik (sermahsullik), mustaqil fikrlash, muammoni ko'ra bilish qobiliyati, intuitsiya(sezgirlik), aqliy faoliyat tezligi, tahlil qila olish qobiliyati kabi aqliy faoliyat namoyon bo'ladi. Muammoli ta'lim nazariyasi paydo bo'lishining sabablaridan biri zamonaviy jamiyat sharoitida mehnat qilib yashashga layoqatli faol, mustaqil, ijodkor shaxsga bo'lgan ijtimoiy jamiyatning ehtiyojidir desak xato qilmaymiz. Maktab o'quvchilarining intellektual(aqliy) rivojlanishiga asosan dars jarayonida muvaffaqiyatli erishish mumkin. Zamonaviy psixologiya tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning o'qishga, bilim olishga, mustaqil izlanishga bo'lgan qiziqishining ortishi o'qituvchining ta'limiy faoliyatni muntazam qiziqarli tarzda tashkil qila olish maxoratiga bog'liqdir. S.L.Rubinshteyn shunday yozadi: «Fikrlash jarayonining dastlabki payti odatda muammoli vaziyat xisoblanadi... Odam nimanidir tushunishga extiyoj sezgandagina, u fikrlashni boshlaydi... Fikrlash, muammo yoki savoldan, xayratdan yoki taajjubdan, qarama-qarshilikdan boshlanadi. Muammoli vaziyat orqali shaxs fikrlash jarayoniga jalg qilinadi; u doimo biron-bir masalani yechishga yo'nalgan bo'ladi». S.L.Rubinshteyn tomonidan produktiv jarayon sifatida olg'a surilgan, muammoli ta'lim konsepsiyasining psixologik asosi bu fikrlash nazariyasi hxisoblanadi. Shaxsning intellektual(akliy) rivojlanishida fikrlash asosiy rolni egallaydi. Ijodiy qobiliyatlar esa fikrlash faoliyati orqali amalga oshadi.

Muammoli ta'limning nazariy asosi sifatida Suqrotning evristik suxbatlari, J.J.Russoning dars ishlanmasini yoki K.D.Ushinskiyning quyidagi fikrlarda bayon qilingan g'oyalarini e'tirof etishimiz mumkin. Masalan u shunday yozgan: «Barcha yoshdagি shaxsning, ayniqsa, bolalarning fikrlash jarayonidagi harakatlarni mustaqil idrok qilish orqali harakatga o'tkazishning eng yaxshi usuli bu Suqrot qo'llagan va uning nomi bilan atalgan Suqrot usulidir. Suqrot o'z fikrlarini tinglovchilarga majburiy singdirmagan, lekin ularning hali shuur bilan oydinlashmagan boshlarida qarama –qarshi fikrlar va faktlar yonma-yonligini zanjir ko'rinishida shunday joylaganki, bu ularni

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

muammoni aniqlashtiradigan, oydinlashtiradigan, umumlashtiradigan fikrda to'xtalishga undagan».

I.Ya.Lerner muammoli ta'lim mohiyatini «O'quvchi o'qituvchi rahbarligida, ta'limiy-tarbiyaviy maqsadiga mos keladigan, aniq bir tizimdagi, o'ziga yangi bo'lgan qiziqarli va amaliy muammolarga yechim topishda ishtirok etishida» deb bilgan. T. V. Kudryavsev esa muammoli ta'lim jarayoni mohiyatini o'quvchilar oldiga didaktik muammolar qo'yish, ularni yechish prinsiplarini egallashlarida ko'rgan. Ayniqsa M. I. Maxmutov muammoli ta'limning umumlashgan qonun-qoidalarini quyidagicha ta'riflagan: «Muammoli ta'lim bu – rivojlantiruvchi ta'lim turi hisoblanib, o'quvchining muntazam, mustaqil izlanish faoliyati va ularning tayyor ilmiy fikrlarni o'zlashtirish uyg'unligidir». Maxmutov shartli ravishda muammoli ta'limning to'rtta bosqichini ajratadi: Oddiy faollik bosqichi, Yarim faollik bosqichi, Mustaqil (produktiv) faollik bosqichi va Ijodiy faollik bosqichi. Muammoli ta'lim bosqichlari, nafaqat o'quvchilarning yangi bilim o'zlashtirish darajasini va aqliy faoliyat usullarini har hilligini tasvirlabgina qolmay, balki fikrlash darajasining har hil ekanligini ham ko'rsatadi. Oddiy nomustaqil faollik bosqichi bu –o'quvchilarning pedagog bergen ma'lumotlarni o'zlashtirishi, muammoli vaziyat sharoitida namunaviy aqliy faoliyatni o'zlashtirish, mustaqil ishlarni, takrorlanuvchi mashqlarni bajarish. Yarim mustaqil faollik bosqichi o'zlashtirilgan bilimlarni yangi vaziyatda qo'llash va o'quvehilarni pedagog bilan birgalikda qo'yilgan muammoni yechishda turli usullarni izlab topish bilan xarakterlanadi. Mustaqil faollik bosqichida esa reproduktiv - izlanish tipidagi mustaqil ishlarni bajarish nazarda tutiladi, bunda o'quvchi darslikdagi matn bilan mustaqil ishlaydi, o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatda qo'llaydi, o'cta darajali qiyin masalalar yechimini loyihalashtiradi, pedagog yordamida mantiqiy tahlil yo'li bilan gepotezalarni isbotlaydi. Ijodiy faollik bosqichi-ijodiy tasavvur, mantiqiy tahlil, yechimning yangi usulini ochish, mustaqil isbotlashni talab qiluvchi mustaqil ishlarni bajarish bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda mustaqil xulosalar chiqariladi, bildirilgan fikrlar umumlashtiriladi va kognitiv ya`ni ijodiy faoliyat ham bajariladi. Muhimi shuni bilish kerak-ki muammoli ta'lim metodlari o'zgartirilmay, o'zaro bir-biri bilan uyg'unlikda qo'llanilsa samarali natijalar beradi. O'quvchilar muammoni mustaqil ravishda ko'ra olsa, uni yechish yo'llarini izlab topsa, muammoni mustaqil yechsagina mustaqil bilim olishning eng yuqori darjasini qayd qilinishi va o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadga erisha oldi deyish mumkin.